

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/10.12.2019.I.16.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

SHAMSIYEV NODIR MURATOVICH

**TIJORAT BANKLARI DEPOZIT OPERATSIYALARI
SAMARADORLIGINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024-yil

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on economical sciences**

Shamsiyev Nodir Muratovich

Tijorat banklari depozit operatsiyalari samaradorligini oshirish

istiqbollari..... 3

Шамсиев Нодир Муратович

Перспективы повышения эффективности депозитных операций

коммерческих банков..... 27

Shamsiev Nodir Muratovich

Prospects for improving the efficiency of deposit operations of commercial

banks..... 53

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 58

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAG
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/10.12.2019.I.16.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

SHAMSIYEV NODIR MURATOVICH

**TIJORAT BANKLARI DEPOZIT OPERATSIYALARI
SAMARADORLIGINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024-yil

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.PhD/Iqt3793 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tsue.uz) va «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: Saipnazarov Sherbek Shaylavbekovich
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Rasmiy opponentlar: Ismailov Alisher Agzamovich,
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Karabayev Nodir Abduxamidovich,
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, (PhD)

Yetakchi tashkilot: G.V. Plexanov nomli Rossiya iqtisodiyot universiteti
Toshkent filiali

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi DSc.03/10.12.2019.I.16.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil 19.09 soat 14 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel: (99871) 239-28-72, faks: (99871) 239-43-51, e-mail: info@tsue.uz

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1496) raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel: (99871) 239-28-72, faks: (99871) 239-43-51, e-mail: info@tsue.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil « 11 » 09 kuni tarqatildi.
(2024-yil 57 30 dagi 08 raqamli restr bayonnomasi).



[Handwritten signature]

S.U. Mexmonov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, i.f.d. professor

[Handwritten signature]

U.V. Gafurov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, i.f.d., dotsent

S.K. Xudoyqulov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d.,
professor

[Handwritten signature]

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Xalqaro va mahalliy bank amaliyotida tijorat banklarining moliyaviy barqarorligidan nafaqat tijorat banklari, balki Markaziy banklar ham kuchli va tabiiy ravishda manfaatdor hisoblanadi. Biroq jahon iqtisodiyotidagi global beqarorlik ta'sirida keyingi yillarda xalqaro moliya institutlarida har 5-10 yilda ro'y beruvchi moliyaviy-iqtisodiy inqirozlar dunyoning barcha mamlakatlari banklari moliyaviy munosabatlarida qator muammolarni keltirib chiqarmoqda. Xususan, "dunyo miqyosida global moliyaviy inqirozdan oldin, 93 mamlakatda chorak asr mobaynida moliyaviy muassasalarda 117 marta tizimli va 50 dan ortiq jiddiy moliyaviy muammolar yuz berdi"¹. Mazkur inqiroz holatlari milliy va xalqaro darajada tijorat banklari moliyaviy barqarorligini ta'minlash, ularning resurs salohiyatini yanada mustahkamlash yuzasidan aniq talablar qo'yishni taqozo etadi.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlari Markaziy banklari, yirik tijorat banklari, Bazil qo'mitasi, Xalqaro valyuta jamg'armasi singari qator moliya muassasalari tomonidan tijorat banklari depozit operatsiyalari samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Tijorat banklari moliyaviy resurslari manbalari, moliya bozori instrumentlari, depozitlarni barqaror manbalar hisobidan shakllantirish, tijorat banklarida muddatli depozitlarni jalb qilish va hajmini oshirish, omonatchilarga to'lanadigan foiz to'lovlarining "jalb qiluvchanlik" darajasining zaifligi, banklarning resurslari tarkibida va mamlakat YaIMga nisbatan depozitlar ulushining pastligi singari holatlarni bartaraf etish, tijorat banklari depozit bazasi mustahkamligini ta'minlashda aholi qo'lidagi vaqtinchalik bo'sh pul mablag'larini banklarga to'liq jalb qilish, muddatli depozitlarning asosiy summasi va ularga hisoblangan foizlarni to'liq va o'z vaqtida qaytarish orqali tijorat banklari depozit operatsiyalari samaradorligini oshirish masalalari bu borada olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

O'zbekiston bank-moliya tizimida olib borilayotgan tub islohotlarning pirovard maqsadi ham respublikamiz banklarining resurs bazasini mustahkamlash, banklarni kapitallashuv darajasini oshirish, xo'jalik yurituvchi subyektlar va aholining bank tizimiga ishonchini oshirishga qaratilgan. Jumladan, "2025-yilga qadar banklar ustav kapitalining eng kam miqdorini 500 mlrd. so'mgacha yetkazish masalasi"² va "bank tizimini isloh qilishni chuqurlashtirish, depozit bazasini oshirish, ularning moliyaviy barqarorligi va ishonchligini

¹ Financial stability: 10 questions and about seven answers. Speech delivered by Mr Jaime Caruana, General Manager of the BIS, at the 50th Anniversary Symposium of the Reserve Bank of Australia, Sydney, 9 February 2010. <https://www.bis.org/speeches/sp100209.htm>

²O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi "2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish stregiyasi to'g'risida"gi PF-5992-sonli farmoni.

mustahkamlash vazifalari”³ belgilab berilgan. Mamlakatimizda “2020–2025-yillarga mo‘ljallangan respublikaning bank tizimini isloh qilish strategiyasida 6 ta bankdagi davlat ulushini bosqichma-bosqich xususiylashtirish”⁴ nazarda tutilgan. Bu islohotlar provardida xususiy banklarning ulushini yanada oshirish hamda ularning resurs bazasini mustahkamlashni talab etib, bu boradagi vazifalarni samarali amalga oshirishga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-sonli ““O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son “2020-2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, 2023-yil 18-avgustdagi PQ-283-son “Davlat ishtirokidagi korxonalar va tijorat banklarini isloh qilish mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2019-yil 21-maydagi PQ-4325-son “Davlat korxonalari va ustav kapitalida davlat ishtirok etayotgan tijorat banklarini restrukturizatsiya va isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 16-yanvardagi 30-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirishlar kiritish, shuningdek, ba’zilarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblash to‘g‘risida”gi qarori (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 21-dekabrda PQ-4071-son “Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta’minlash, faoliyati samaradorligini oshirish va kredit siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori) hamda sohaga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq amalga oshirilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Tijorat banklari depozit operatsiyalari samaradorligini ishlab chiqish, amalga oshirish hamda depozit munosabatlarini tartibga solishning nazariy-uslubiy xususiyatlari bir qator mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Mazkur masala yuzasidan xorijlik iqtisodchi olimlar O.Lavrushin, L.Batrakova, O.Jilan, M.Kovalev, A.Osmolovskiy, P.Rouz, E.Rode, O.Semibratova, L.Padalkina, K.Kempbellning ilmiy izlanishlarida o‘z ifodasini topgan⁵.

³O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli farmoni. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – Toshkent, 2017. – № 6 (766). – 32-b.

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992 sonli “2020–2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida” farmoni.

⁵Лаврушин О.И. и др. Банковское дело/учебник. – Москва: КНОРУС, 2016. –795с. Коммерческие банки и их операции. – М.: Банки и биржи, 2015. – 311 с. Батракова Л.Г. Экономический анализ деятельности коммерческого банка. Учебник для вузов. – М.: Логос, 2005. – 325 с. Джилан О. Депозитная политика коммерческого банка. – Иркутск: Изд-во «БГУЭП», 2013-107 с. Ковалев М.М., Осмоловский А.Д. Оптимальная структура портфеля банка. Сб. науч.статей. – 12 с., 2003 г. Роуз П.С. Банковский Менеджмент. / Пер. с англ. – Москва: Дело, 2003.-768с., Рode Е.М. Банки, биржи, ценности современного капитализма. –

O‘zbekistonlik olimlar A.A.Omonov, Sh.Sh.Saipnazarov, A.Norov, T.M.Karaliyev, U.D.Ortiqov, Sh.B.Ro‘zmetov, B.K.Mirzamaydinov, S.M.Xodiyev, Z.Ya.Raxmanov, A.M.Rahimov, I.I.Jo‘raevning ilmiy ishlarida tijorat banklari resurs bazasini mustahkamlashda depozit operatsiyalarining rolini oshirish borasidagi muammolar tadqiq etilgan⁶.

Ayni paytda, banklarning depozit operatsiyalari samaradorligini ishlab chiqish va amalga oshirishning nazariy, uslubiy va amaliy masalalariga bag‘ishlangan ko‘plab ilmiy manbalar mavjudligiga qaramay, mazkur yo‘nalishda dolzarb hisoblanuvchi bir qator muammolar yoritilmay qolmoqda. Bunday muammolar jumlasiga: depozit siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishda mazkur siyosat bank faoliyatini rivojlantirish strategiyasining tarkibiy qismi ekanligining e‘tiborga olinmasligi, buning natijasida siyosatga mustaqil tizim sifatida yondashilishi; tadqiqotlardan olingan nazariy-uslubiy tavsiyalarning amaliy faoliyat bilan bog‘liq emasligi hamda olingan xulosalarning aksariyat holatlarda real vaziyatga mos kelmasligi; depozit operatsiyalari samaradorligini takomillashtirish bo‘yicha katta xarajat va vaqtni talab etmaydigan, shuningdek, mavjud jarayonlarni o‘zgartirmay qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan uslubiyat mavjud emasligini kiritish mumkin.

Tijorat banklari depozit samaradorlik ko‘rsatkichlarini ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonlarini takomillashtirish sohasidagi dolzarb muammolarning yetarli darajada va kompleks tadqiq qilinmaganligi hamda ularning yechimini topish ilmiy va amaliy ahamiyatga ega ekanligi mazkur dissertatsiya tadqiqotining maqsadi, vazifalari hamda tarkibiy tuzilmasini belgilab olishga asos bo‘ldi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan muassasaning ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga bog‘liqligi. Dissertatsiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi tijorat banklarida depozit operatsiyalari samaradorligini takomillashtirish yuzasidan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

М.: Финансы и статистика, 1986.- 358 с.; Семибратова О.И. Банковское дело. – Москва: Академия, 2004.- 218с., Падалкина Л.С. Современная денежно-кредитная система капитализма. – М.: VZFEI, 1982. -489 с. John Y. Campbell, Andrew Wen-chuan Lo, “The Econometrics of Financial Markets”1994 y.

⁶ Saipnazarov Sh.Sh. Bank ishi va moliya. O‘quv qo‘llanma. 2022 y. -112 b. Norov. A.R. Bank ishi. Darslik, 2022. – 147 b. Omonov A.A. Tijorat banklarining resurslarini samarali boshqarish masalalari. I.f.d. ilm. dar. ol. uch. taqd. et. diss. avtoref. – Toshkent, 2008. – 35 b., Qoraliyev T.M. Pul va banklar. Darslik. – T.: Iqtisod-moliya, 2019 y. – 461 b., Ortikov U.D. Bank resurslari va ularni boshqarish. I.f.n. diss. avtoreferati. O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi. – 19.09.2008. –T., 2008. -20 b., Ro‘zmetov Sh.B. O‘zbekiston tijorat banklari depozit bazasini mustahkamlash yo‘llari. I.f.n. ilm. dar. ol. uch. taqd. et. diss. avtoref. – Toshkent, 2009. – 26.; Mirzamaydinov B.K. Bank xizmatida marketing samaradorligi. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoreferati. – T., 2008.; Ходиев С.М. Совершенствование депозитной политики коммерческих банков в условиях либерализации экономики. Автореферат дис. ... канд. экон. наук. 08.00.07. – Ташкент, 2010.; Raxmanov Z.Ya. Tijorat banklari faoliyatini rivojlantirish strategiyasini takomillashtirish. Iqt. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. 08.00.07. – Tashkent, 2018; Rahimov A.M. Tijorat banklari depozit bazasi va uni kengaytirish yo‘llari. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. –T.: “iqtisod-moliya” nashriyoti, 2019. – 54 b.; Jo‘rayev I.I. O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari depozit bazasini mustahkamlash. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. – T.: “Akademiya noshirlik markazi” nashriyoti, 2020. – 54 b.

depozit operatsiyalari samaradorligining iqtisodiy mohiyati va uning o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq qilish va tegishli ilmiy-nazariy xulosalarni shakllantirish;

tijorat banklari operatsiyalari ko'rsatkichlarini ishlab chiqish va amalga oshirishning me'yoriy-huquqiy asoslarini tadqiq etish;

tijorat banklari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va strategik tendentsiyalarni baholash;

tijorat banklarida depozit operatsiyalari samaradorligi ishlab chiqish borasida xorij tajribasini o'rganish va O'zbekiston bank amaliyotiga tatbiq etish imkoniyatlari yuzasidan amaliy tavsiyalar ishlab chiqish;

bank depozit operatsiyalari samaradorligi oshirish bilan bog'liq mavjud muammolarni aniqlash;

bank depozit operatsiyalari samaradorligi oshirishni optimallashtirish yuzasidan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari depozit operatsiyalari hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti tijorat banklari depozit operatsiyalari samaradorligi oshirishni takomillashtirish bilan bog'liq moliyaviy-iqtisodiy munosabatlardan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, korrelyatsiya va regressiya, qiyoslash va guruhlash, ekspert baholash, ilmiy abstraktsiyalash va boshqa usullar qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

tijorat banklari faoliyatini rivojlantirish strategiyasi va depozit siyosati o'rtasidagi uzviy aloqadorlik va muvofiqlikni ta'minlash asosida banklarning mazkur faoliyat yo'nalishlaridagi mehnat sarfi hamda operatsion xarajatlarini qisqartirish asoslangan;

tijorat banking "Mijozlarning sodiqligi" modeli asosida qo'yilgan depozitlarni yillar kesimida "past" ($0 < D_p \leq 1$ yil), "o'rta" ($1 \text{ yil} < D_o \leq 3$ yil), "yaxshi" ($3 \text{ yil} < D_{ya} \leq 5$ yil va undan ortiq) sifatida baholash orqali depozit operatsiyalarini optimallashtirish asoslangan;

tijorat banklari uzoq muddatli kreditlari va muddatli depozitlari (asosan 1 yildan ortiq) o'rtasidagi muvofiqlikni ta'minlash orqali banklardagi transformatsiya riskini samarali boshqarish taklif etilgan;

O'zbekistondagi tijorat banklarining depozit operatsiyalari samaradorligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar o'rtasidagi bog'liqlikning ekonometrik modeli asosida tijorat banklari depozitlari hajmining 2030-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

tijorat banklarining depozit mablag'larni jalb qilish holatini o'rganish asosida bank depozit bazasini kengaytirish mexanizmi asoslangan;

tijorat banklari depozit siyosatining boshqa siyosatlar bilan uzviy aloqadorligini ta'minlash, depozit operatsiyalarini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish taklif etilgan;

tijorat banki depozit operatsiyalari samaradorligini optimallashtirish orqali mijozlarni bankka keng jalb etishning "Mijozlar sodiqligi" modeli ishlab chiqilgan;

bank depozit bazasini kengaytirish mexanizmidan foydalanish maqsadga muvofiqligi asoslangan;

tijorat bankida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan transformatsiya riskini samarali boshqarish bilan birga bir yildan ortiq muddatga jalb qilingan depozitlardan foydalanish taklif etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi ilmiy tadqiqot ishida qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, ma'lumotlarning rasmiy manbalar orqali, xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, yirik xorijiy banklar va O'zbekiston Respublikasidagi tijorat banklari statistik ma'lumotlari tahlili natijalariga asoslanganligi hamda tijorat banklari amaliyotiga tatbiq etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tadqiqot ishini bajarish davomida olingan ilmiy natijalar, xulosa va takliflardan tijorat banklari depozit siyosatining nazariy asoslarini rivojlantirish va mazmunan boyitish, uning uslubiy asoslarini takomillashtirish va nazariy-uslubiy bilimlar doirasini kengaytirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalardan tijorat banklari depozit operatsiyalari samaradorligini oshirishni takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tijorat banklarida depozit operatsiyalari samaradorligini takomillashtirish yuzasidan ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar asosida:

tijorat banklari faoliyatini rivojlantirish strategiyasi va depozit siyosati o'rtasidagi uzviy aloqadorlik va muvofiqlikni ta'minlash asosida banklarning mazkur faoliyat yo'nalishlaridagi mehnat sarfi hamda operatsion xarajatlarini qisqartirish taklifi ATB "Mikrokreditbank"ning 2023-yilga mo'ljallangan depozit siyosatining asosiy yo'nalishlarida o'z aksini topgan va bank amaliyotiga joriy etilgan (ATB "Mikrokreditbank"ning 2024-yil 16-fevraldagi 04-16/5083-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida tijorat banklarining depozit siyosatini boshqa siyosatlar bilan uzviy aloqadorligini ta'minlash, depozit operatsiyalarini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish, depozit bazasini mustahkamlash bo'yicha chora-tadbirlar majmuasini ishlab chiqish, depozit siyosatini amalga oshirish va joriy holatini tahlil qilish hamda nazorat qilish tizimini takomillashtirish imkoniyatini kengaytirishga xizmat qilib, yuqorida keltirilgan faoliyat yo'nalishlaridagi mehnat sarfini 4 foizga pasaytirgan holda bankning operatsion xarajatlari 1,1 foizga kamayishiga olib kelgan;

tijorat banking "Mijozlarning sodiqligi" modeli asosida qo'yilgan depozitlarni yillar kesimida "past" ($0 < D_p \leq 1$ yil), "o'rta" ($1 \text{ yil} < D_o \leq 3$ yil), "yaxshi" ($3 \text{ yil} < D_{ya} \leq 5$ yil va undan ortiq) sifatida baholash orqali depozit operatsiyalarini optimallashtirish taklifi ATB "Mikrokreditbank" amaliyotiga joriy etilgan (ATB "Mikrokreditbank"ning 2024-yil 16-fevraldagi 04-16/5083-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida tijorat banking 2023-yil yakuniga ko'ra bankka depozit qo'ygan mijozlar soni 5000 tani

tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan yuridik shaxslar depozitini 9 foizga va jismoniy shaxslar depozitini 11,5 foizga oshishga erishilgan;

tijorat banklarining uzoq muddatli kreditlari va muddatli depozitlari (asosan 1 yildan ortiq) o'rtasidagi muvofiqlikni ta'minlash orqali banklardagi transformatsiya riskini samarali boshqarish taklifi ATB "Mikrokreditbank"ning risklarni boshqarish amaliyotiga joriy etilgan (ATB "Mikrokreditbank"ning 2024-yil 16-fevraldagi 04-16/5083-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi tijorat bankida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan transformatsiya riskini samarali boshqarish bilan birga bir yildan ortiq muddatga jalb qilingan depozitlarni 132 mlrd. so'mga oshirish imkonini bergan;

O'zbekistondagi tijorat banklarining depozit operatsiyalari samaradorligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar o'rtasidagi bog'liqlikning ekonometrik modeli asosida tijorat banklari depozitlari hajmining 2030-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlaridan "Mikrokreditbank" ATB tomonidan 2030-yilga mo'ljallangan bank umumiy strategiyasini ishlab chiqishda foydalanilgan va amaliyotga joriy qilingan (ATB "Mikrokreditbank"ning 2024-yil 16-fevraldagi 04-16/5083-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi "Mikrokreditbank" ATBning uzoq muddatli istiqboldagi depozitlari hajmi hamda u bilan bog'liq asosiy faoliyat ko'rsatkichlarini aniqlash hamda o'zaro muvofiqlashtirish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiyaning asosiy g'oya va xulosalari 3 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta ilmiy maqola (shundan 4 ta nufuzli xorijiy), boshqa ilmiy nashrlar hamda xalqaro va respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida 6 ta maqola va tezis nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 121 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr qilingan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Tijorat banklari depozit operatsiyalarining mohiyati va nazariy asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida depozit operatsiyalari samaradorligining iqtisodiy mazmuni va tijorat banklarini rivojlantirishdagi ahamiyati, depozit siyosatini ishlab chiqish va tahlil qilishning zarurati, tijorat

banklari depozit operatsiyalari samaradorligini baholash va ularning huquqiy asoslariga oid konseptual asoslar xorijiy manba va adabiyotlarda keltirilgan yondashuvlar batafsil tahlil qilingan.

Banklarning kelib chiqish davridan hozirgi kungacha bo'lgan davrni o'rganib, tahlil qilib ko'rilsa, dastlabki banklar yuzaga kelishi bilanoq omonat va depozit tushunchalari paydo bo'lganligiga guvoh bo'lish mumkin.

Xalqaro bank amaliyotiga muvofiq, bank tizimi barqarorligini ta'minlashning muhim omillaridan biri hisoblanuvchi tijorat banklari depozitlarining nazariy va amaliy ahamiyatini o'rganish bank faoliyati barqarorligining eng muhim masalalari hisoblanadi.

Taraqqiy etgan mamlakatlar bank amaliyoti tajribasidan ma'lumki, depozitlar bank majburiyatlarining asosiy qismini tashkil etib, ularning barqarorlik darajasi bankning daromadliligi va likvidligini ta'minlash hamda mustahkamlash imkonini beradi.

Tijorat banklari depozit operatsiyalari samaradorligini ishlab chiqish, amalga oshirish hamda depozit munosabatlari tartibga solishning nazariy-uslubiy xususiyatlari bir qator mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Mazkur masala xorijlik iqtisodchi olimlar O.Lavrushin, L.Batrakova, O.Jilan, M.Kovalev, A.Osmolovskiy, P.Rouz, E.Rode, O.Semibratova, L.Padalkina, K.Kempbellning ilmiy izlanishlarida o'z ifodasini topgan⁷.

O'zbekistonlik olimlar Sh.Sh.Saipnazarov A.R.Norov, A.A.Omonov, T.M.Karaliyev, U.D.Ortiqov, Sh.B.Ro'zmetov, B.K.Mirzamaydinov, S.M.Xodiyev, Z.Ya.Rahmanov, A.M.Rahimov, I.I.Jo'rayevning⁸ ilmiy ishlarida tijorat banklari resurs bazasini mustahkamlashda depozit operatsiyalarining rolini oshirish borasidagi muammolar tadqiq etilgan.

⁷Lavrushin O.I. и др. Банковское дело: учебник. – Москва: КНОРУС, 2016. -795с. Коммерческие банки и их операции. – М.: Банки и биржи, 2015. -311 с. Батракова Л.Г. Экономический анализ деятельности коммерческого банка. Учебник для вузов. – М.: Логос, 2005.- 325 с. Жилан О. Депозитная политика коммерческого банка. – Иркутск: Изд-во БГУЭП, 2013-107 с. Ковалев М.М., Осмоловский А.Д. Оптимальная структура портфеля банка. Сб. науч.статей подобщ. 12 с., 2003 г. Роуз П.С. Банковский Менеджмент / Пер. с англ. –Москва: Дело, 2003.-768с., Роде Э.М. Банки, биржи, валюты современного капитализма. – М.: Финансы и статистика, 1986. -358 с., Семibratova O.I. Банковское дело. – Москва: Академия, 2004.-218с., Падалькина Л.С. Современная денежно-кредитная система капитализма. – М.: ВЗФЕИ, 1982. -489 с. John Y. Campbell, Andrew Wen-chuan Lo, “The Econometrics of Financial Markets”, 1994 y.

⁸ Saipnazarov Sh.Sh. Bank ishi va moliya. O'quv qo'llanma. – T.: TDIU, 2022-y. - 112 b. Norov. A.R. Bank ish. Darslik, 2022. -147 b. Omonov A.A. Tijorat banklarining resurslarini samarali boshqarish masalalari. I.f.d. ilm. dar. ol. uch. taqd. et. diss. avtoref. – Toshkent, 2008. – 35 b., Qoraliyev T.M. Pul va banklar. Darslik. – T.: Iqtisod-moliya, 2019 y. – 461 b, Ortikov U.D. Bank resurslari va ularni boshqarish. i.f.n. diss. avtoreferati. O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi. – T., 2008. -20 b., Ro'zmetov Sh.B. O'zbekiston tijorat banklari depozit bazasini mustahkamlash yo'llari. i.f.n. ilm. dar. ol. uch. taqd. et. diss. avtoref. – Toshkent, 2009. – 26.; Mirzamaydinov B.K. Bank xizmatida marketing samaradorligi. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. Avtoreferati – T., 2008.; Xodiyev S.M. Совершенствование депозитной политики коммерческих банков в условиях либерализации экономики. Автореферат кандидата экон.наук. – Tashkent, 2010.; Rahmanov Z.Ya. Tijorat banklari faoliyatini rivojlantirish strategiyasini takomillashtirish. iqt. fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent, 2018; Rahimov A.M. Tijorat banklari depozit bazasi va uni kengaytirish yo'llari. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferatiю – T.: “Iqtisod-moliya” nashriyoti, 2019. 54 b.; Jo'rayev I.I. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari depozit bazasini mustahkamlash. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. – T.: “Akademiya noshirlik markazi” nashriyoti, 2020. - 54 b.

Depozit operatsiyalari passiv bank operatsiyalari hisoblanib, banklar faoliyatida asosiy o'rinni egallaydi. Chunki mazkur operatsiyalar bank resurslarining shakllanishi va bank aktivlarining optimal tarkibini aniqlashda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Ayni paytda, banklarning depozit operatsiyalari samaradorligini ishlab chiqish va amalga oshirishning nazariy, uslubiy va amaliy masalalariga bag'ishlangan ko'plab ilmiy manbalar mavjudligiga qaramay, mazkur yo'nalishda dolzarb hisoblanuvchi bir qator muammolar yoritilmay qolmoqda. Bunday muammolar jumlasiga: depozit siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishda mazkur siyosat bank faoliyatini rivojlantirish strategiyasining tarkibiy qismi ekanligi e'tiborga olinmasligi, buning natijasida siyosatga mustaqil tizim sifatida yondashilishi; tadqiqotlardan olingan nazariy-uslubiy tavsiyalarning amaliy faoliyat bilan bog'liq emasligi hamda olingan xulosalarning aksariyat holatlarda real vaziyatga mos kelmasligi; depozit operatsiyalari samaradorligini takomillashtirish bo'yicha katta xarajat va vaqtni talab etmaydigan, shuningdek, mavjud jarayonlarni o'zgartirmay qo'llanilishi mumkin bo'lgan uslubiyat mavjud emasligini kiritish mumkin.

Depozit operatsiyalari tijorat banklari faoliyati uchun muhim bo'lib, kredit va investitsiya faoliyati uchun zarur likvidlik va kapitalni ta'minlaydi. Nazariy asoslar, shu jumladan qisman zaxira banki, likvidlikni afzal ko'rish, aktivlar passivlarni boshqarish depozitlarni boshqarish bilan bog'liq qiyinchilik va xatarlarni tushunishga yordam beradi. Samarali boshqarish va me'yoriy standartlarga rioya etish orqali banklar omonatchilarning mablag'larini saqlash va ko'paytirishni ta'minlaydi, shu bilan birga iqtisodiy barqarorlik va o'sishga hissasi juda muhim hisoblanadi.

Tijorat banklari depozit samaradorlik ko'rsatkichlarini ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonlarini takomillashtirish sohasidagi dolzarb muammolarning yetarli darajada va kompleks tadqiq qilinmaganligi hamda ularning yechimini topish ilmiy va amaliy ahamiyatga ega ekanligi mazkur dissertatsiya tadqiqotining maqsadi, vazifalari hamda tarkibiy tuzilmasini belgilashga asos bo'ldi.

Iqtisodiy adabiyotlarda tijorat banklari depozit bazasini shakllantirishning nazariy asoslarini tadqiq qilishda uning yetariligi va barqarorligi xususida iqtisodchi olimlar o'rtasida turli xil yondashuvlar mavjud.

Odatda, depozit bazasi deganda, depozit jalb qilish huquqiga ega tijorat banklari va boshqa moliya-kredit muassasalariga yuridik hamda jismoniy shaxslar tomonidan talab qilib olinguncha, jamg'arma, muddatli depozitlarga joylashtirilgan barcha pul mablag'lari tushuniladi.

Muallifning fikricha, tijorat banklari depozit bazasi tarkibiga mamlakat qonunchiligida belgilab qo'yilgan talablar va shartlar asosida bank muassasalariga jalb qilingan barcha depozitlarni kiritish mumkin.

O'z navbatida, tijorat banklari depozit mablag'lari tarkibida talab qilib olinguncha saqlanuvchi hisobvaraqlardagi depozitlarga korxonalar, tashkilot, muassasa va boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlarning hisob-kitob va joriy hisobvaraqlarida saqlanuvchi pul mablag'lari kiradi. Talab qilib olinguncha

saqlanuvchi hisobvaraqlardagi depozitlarga bank nisbatan past miqdorda, ayrim holatlarda esa, umuman foiz to‘lovlari to‘lamaydi.

1-jadval

Bank depozit operatsiyalari samaradorligiga oid zamonaviy ilmiy yondashuvlar⁹

Mualliflar	Ilmiy yondashuv va fikrlar
F.I. Mirzayev	Bank xizmatlari bozorida resurslarni jalb etish, mablag‘larni joylashtirish va boshqa barcha bank xizmat turlarini amalga oshirish jarayonida yuzaga keluvchi iqtisodiy munosabatlar banklararo raqobatning asosi sifatida aniqlanadi ¹⁰ .
A.A. Omonov	Bank resurslarini boshqarishda strategik rejalashtirish kamida bir yildan o‘n yilgacha mo‘ljallanib ishlab chiqilishi maqsadga muvofiqligini qayd etib o‘tgan ¹¹ .
A.R. Norov	Depozit bazasi aholi va yuridik shaxslarning muddatli depozitlari yig‘indisi sifatida belgilanadi ¹² .
G.S. Panova	Jamg‘arma depozitlarni kredit muassaslariga turli muddatdlarga, aniq maqsadni ko‘zlangan holda, uzoq muddatga qo‘yilgan jamg‘armalar sifatida talqin qiladi ¹³ .
I.T. Balabanov	Depozit bank mijozlari tomonidan bankka vaqtincha foydalanish uchun topshirilgan mablag‘dir ¹⁴ .
A.M. Tavasiyev	Depozit tomonidan kelishilgan muddat kelganda omonatchiga yoki uning vorisiga qaytarib beriladigan pul yoki qimmatbaho qog‘oz ko‘rinishidagi mablag‘dir ¹⁵ .
N.A. Luniyeva	Tijorat bankining depozit bazasi mustahkamligini ta’minlashda depozit riskini e’tiborga olish, uni baholash, tasniflash zarurligini ta’kidlaydi.
N.M. Rozanova	Depozitlar yoki omonatlar bank majburiyatlarining katta qismini tashkil etadi, depozitlar aholi va firmalarning pul mablag‘lari sifatida tushuniladi, ular muayyan sharoitlarda va muayyan davrda bank hisob raqamiga o‘tkaziladi ¹⁶ .
V.L. Kireev	Depozit mablag‘ egasi tomonidan bankka saqlash uchun topshirgan va shartlariga ko‘ra alohida hisobvaraqda saqlanadigan mablag‘dir ¹⁷ .
O.I.Lavrushin, N.I.Valentseva	Dunyo bank amaliyotida depozit deganda, pul yoki qimmatbaho qog‘oz ko‘rinishida bank va boshqa moliyaviy tashkilotlarga saqlash uchun topshirilgan mablag‘lar tushuniladi ¹⁸ .
P. Rouz	Depozit mijoz tomonidan saqlash muddati va rasmiylashtirish shartlaridan qat’iy nazar bank tasarrufiga topshirilgan pul mablag‘laridir ¹⁹ .
M.M. Agarkov	Depozitni aholi, korxonalar va tashkilotlar tomonidan bank va boshqa moliyaviy tashkilotlarga saqlash uchun topshirilgan mablag‘ yoki qimmatli qog‘oz deb ta’riflaydi ²⁰ .
K. Kempbell	Muddatli depozitlar bank uchun boshqarish oson, lekin qimmat resurs deb

⁹ Muallif ishlanmasi

¹⁰ Mirzayev F.I. O‘zbekistonda banklararo raqobatni shakllantirishning kontseptual asoslari. Iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiyaavtoreferati. – T.: BMA, 2009. 11b.

¹¹ Omonov A.A. Tijorat banklarining resurslarini samarali boshqarish masalalari. Iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. – T.: BMA, 2008. 11 b.

¹² Norov A.R. Bank ishi darsligi. – T.: TDIU, 2021. 112 b.

¹³ Панова Г.С. Кредитная политика коммерческого банка. – М.: ИКС «ДИС», 1997. – С. 194..

¹⁴ Балабанов И.Т. Основы финансового менеджмента: учеб. пособие / И.Т. Балабанов. – 3-е изд., перераб. и доп. – К.: Элга, Ника-Центр, 2005. - 656 с.

¹⁵ Тавасиев А.М. Совершенствование депозитной политики коммерческого банка в контексте его устойчивого развития. Дис... канд. эк. наук. – Саранск, 2019. – 262 с.

¹⁶ Розанова Н.М. Деньги и банки: учебник. – М.: Издательство «Юрайт», 2018. – 241 с.

¹⁷ Банковское дело. Учебник / В.Л. Киреев, О.Л. Козлова. – М.: КНОРУС, 2012.-240 с. (для бакалавров).

¹⁸ Лаврушин О.И., Валенцева Н.И. [и др.] Банковское дело. Учебник /под ред. О. И. Лаврушина. - 12-е изд., стер. – М.: КНОРУС, 2016. - 800 с.

¹⁹ Роуз П. Банковский менеджмент: Предоставление фин. услуг / Пер. с англ. / Питер С. Роуз. – Москва: Акад. нар. хоз-ва: Дело, 1995.

²⁰ Агарков М.М. Ресурсы коммерческого банка. Учебное пособие. – Иркутск: БГУ, 2017. – 102 с.

Shu jihatdan, tijorat banklarining ushbu depozit manbayini beqaror moliyaviy manba sifatida ta'kidlash mumkin. Chunki bankda mazkur manbalar hisobidan aktiv operatsiyalar amalga oshirilsa, uning faoliyatida turli iqtisodiy muammolar vujudga keladi. Masalan:

- resurslarni boshqarish bilan bog'liq muammolar;
- resurslarning samaradorligi bilan bog'liq muammolar;
- bank likvidiligi bilan bog'liq muammolar.

Tijorat banklari resurslari tarkibida muddatli depozitlar moliyaviy jihatdan barqaror manba hisoblanadi. Bunda bir yil va undan kam muddatga qabul qilingan omonatlar qisqa muddatli omonatlar, bir yildan ortiq muddatga qabul qilingan omonatlar uzoq muddatli omonatlar hisoblanadi²². O'z navbatida, banklar ushbu depozit turi bo'yicha yuqori foiz to'lovlarini to'laydi. Muddatli depozitlar oldindan ogohlantirish asosida muddatidan oldin bankdan qaytarib olinishi ham mumkin. Bunda bank mijozga depozit mablag'ini oldindan qaytarib olganligi uchun jarima tarzida shartnomada kelishilgan foiz to'lovlarini to'liq yoki qisman to'lamaslik huquqiga ega bo'ladi.

Taraqqiy etgan davlatlar, jumladan AQShda jismoniy shaxslar o'rtasida depozitlarning eng rivojlangan turi jamg'arma depozitlar hisoblanadi. Jamg'armaning mazkur turida bank omonatchiga uning mablag'i harakati, qoldig'i va unga hisoblangan foizlar haqidagi ma'lumotni aks ettiruvchi jamg'arma daftarchasini beradi. Jamg'arma depozitlarining asosiy turi sifatida rivojlangan mamlakatlar bank amaliyotida keng qo'llanilayotgan depozit sertifikatlarini ko'rsatish mumkin.

Taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalar, shuningdek, bank xizmatlari ommabopligini ta'minlashga qaratilgan islohotlar zamonaviy sharoitda banklar depozit operatsiyalari samaradorligining iqtisodiy mohiyatini tadqiq etish jarayonlari faollashtirilishini taqozo etadi. Shu bilan bir qatorda, bank faoliyatini rivojlantirish strategiyasining mazmuni va mohiyatidan kelib chiqqan holda depozit operatsiyalari samaradorligini baholash tijorat banklarida mazkur yo'nalishdagi analitik ishlarni soddalashtirish bilan bir qatorda, amaliy faoliyatda yuzaga kelayotgan muammolarni barataf etish imkoniyatini beradi. Bundan tashqari, depozit siyosatining strategik maqsadlarni amalga oshirish nuqtai nazaridan talqin etilishi uning tarkibiy tuzilmasi va vazifalarini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Dissertatsiyaning **“Tijorat banklarida depozit operatsiyalari samaradorligining tahlili”** nomli ikkinchi bobida depozit operatsiyalari samaradorligini baholash shakllari va ko'rsatkichlari, tijorat banklarida depozit samaradorligini tahlil qilishning o'ziga xos jihatlari va ularning sifat ko'rsatkichlarini baholash usullari yoritib berilgan.

Depozit jalb qilish banklarning asosiy vazifalaridan biri hisoblanib, depozit amaliyotisiz tijorat banklarida boshqa asosiy vazifalarni bajarish mumkin emas.

²¹ K. Kempbell. “The Econometrics of Financial Markets”1994 -146 p.

²² O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2015-yil 22-iyuldagi “O'zbekiston Respublikasi banklarida depozit operatsiyalarini amalga oshirish tartibi to'g'risida”gi yo'riqnomasi.

Banklarning asosiy maqsadi bo'lgan foyda olishga erishish istiqbollari belgilovchi, ya'ni daromad keltiruvchi aktiv amallarni bajarish bilan bog'liq faoliyatda jalb qilingan va jamg'arilgan mablag'lar yoki depozitlar muhim o'rin tutadi. Shu nuqtai nazardan, tijorat banklarida depozit bazasini kengaytirish borasida doimiy chora-tadbirlar amalga oshirib boriladi.

Ma'lumki, aholi iste'molidan ortgan vaqtincha bo'sh pul mablag'larini tijorat banklarida bexavotir saqlash kafolatlari mavjudligi hamda topshirilgan omonatlar bo'yicha foizli daromad olishdan manfaatdor bo'lsagina, bank tizimiga ishonchi ortadi va bu bilan bank depozit bazasi kengayishiga erishiladi.

1-rasmda respublikamizda faoliyat yuritayotgan tijorat banklarida depozitlarning tasniflanishi ko'rish mumkin bo'lib, unda banklar tomonidan depozitlarning yuridik va jismoniy shaxslardan qabul qilinishi hamda depozitlar muddati bo'yicha talab qilib olinguncha, muddatli va oldindan kelishilgan shart asosida olinishi ko'rsatib berilgan.

Depozitlar		
Muddatli depozitlar	Talab qilib olinguncha	Jamg'arma depozitlar
3 oygacha	LORO	Muddatli
	Kontokorrent	Muddatli (qo'shimcha quyilmalar bilan)
3-6 oygacha	Overdraft	Shartli
6-9 oygacha		Shaxsiy talab qilib olinguncha
9-12 oygacha	NOSTRO	Talab qilib olinguncha
		Joriy hisob raqamda

1-rasm. Depozitlarning tasnifi²³

Tijorat banklari depozit operatsiyalari holati tahlil qilinsa, bu jarayonda tijorat banklarining o'rni qay darajada ekanligi alohida ahamiyat kasb etadi.

2-jadval

Tijorat banklari majburiyatlari tarkibi va dinamikasi²⁴

Majburiyatlar	2019-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2023-y.
Depozitlar	53,2	48,3	48,4	40,8	37,4
Markaziy bankning vakillik hisobvarag'i	0,37	0,45	0,4	0,4	0,21
Boshqa banklarning mablag'lari-rezident	4,7	4,1	5,3	3,9	3,4
Boshqa banklarning mablag'lari-norezident	0,0	0,0	0,0	0,08	0,3
Olingan kreditlar va lizing operatsiyalari	32,1	33,6	35,7	49,9	55,6
Chiqarilgan qimmatli qog'ozlar	1,3	0,3	1,1	0,6	0,5
To'lanishi lozim bo'lgan hisoblangan foizlar	0,7	0,6	0,5	0,7	1,1
Boshqa majburiyatlar	7,63	9,05	8,3	4,1	2,0


²³ Muallif tomonidan tuzilgan.

²⁴ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan. www.cbu.uz

Jami majburiyatlar	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
---------------------------	--------------	--------------	--------------	--------------	--------------

Shu o‘rinda, muallifning fikricha, O‘zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan tijorat banklari majburiyatlari tarkibini tahlil qilish maqsadga muvofiq. Chunki, bank jami majburiyatlari tarkibida depozit mablag‘lari ulushining qay darajada ekanligini bilmay turib, depozitlar holati tahlil qilinganidan hech qanday ma’no yo‘q.

2-jadval ma’lumotlaridan ko‘rish mumkinki, o‘tgan yillar davomida mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan tijorat banklari jami majburiyatlari tarkibida depozitlar salmog‘i pasayish tendentsiyasiga ega bo‘lgan. Xususan, 2019-yil yakuni bo‘yicha majburiyatlar tarkibida depozitlar ulushi 53,2 foizni tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2023-yil yakuni bo‘yicha 37,4 foizni tashkil qilgan. Lekin mamlakatimiz tijorat banklari tomonidan jalb qilingan depozitlar miqdori yillar davomida o‘sish tendentsiyasiga ega. Yuqoridagi jami majburiyatlar tarkibida depozitlar ulushining kamayish holatini banklar tomonidan xorijiy kredit liniyalari va banklararo olingan kreditlarning miqdor jihatdan o‘tgan yillarga nisbatan so‘nggi yillarda ko‘p jalb qilinishi bilan izohlash mumkin. Shu bilan birga, keyingi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning kengayishi natijasida xorijiy investitsiyalarning respublikamiz hududiga kirib kelishi ko‘paydi.



2-rasm. O‘zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan ayrim tijorat banklarining depozitlarni jalb qilish dinamikasi²⁵

2-rasm ma’lumotlaridan ko‘rish mumkinki, 2023-yil 1-yanvar holatiga respublikadagi 29 ta tijorat banki o‘rtasida aholi va xo‘jalik yurituvchi subyektlarning bo‘sh pul mablag‘larini jalb qilish bo‘yicha O‘zmilliybank eng yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lgan. Bu ko‘rsatkich mamlakatimiz banklari tomonidan jalb qilingan jami depozitlarning 16,8 % yoki 11,7 trln. so‘mni tashkil etgan.

Respublikamizda eng ko‘p filialga ega Xalq banki bu ko‘rsatkich bo‘yicha keyingi o‘rinlarga tushib ketganligi salbiy holat hisoblanadi. Bank tomonidan

²⁵ O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan. www.cbu.uz

depozitlar jalb qilish bo'yicha puxta o'ylangan strategiyani ishlab chiqish bank resurs bazasining oshishiga olib keladi.


3-jadval ma'lumotlari tahlil qilinsa, 2019-2023-yillar oralig'ida tijorat banklari tomonidan jalb qilingan jami depozitlar tarkibida muddatli depozitlarning ulushi mos ravishda 29,9 foizdan 37,4 foizgacha o'sganligini ko'rish mumkin. Jamg'arma depozitlar ulushi esa yillar davomida 10,6 foizdan 14,1 foizgacha o'sgan. Jami depozitlar tarkibida eng yuqori ulush talab qilib olinguncha depozit mablag'lariga to'g'ri kelmoqda. Ya'ni bu ko'rsatkich 2023-yil yakuni bo'yicha 48,5 foizni tashkil qilgan.

3-jadval

Mamlakatimiz tijorat banklari depozitlari tarkibi²⁶

Depozitlar	2019-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2023-y.
Muddatli	29,9	30,2	29,5	24,9	37,4
Jamg'arma	10,6	11,3	11,1	11,0	14,1
Talab qilib olinguncha	59,5	58,5	59,5	64,1	48,5
Jami	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0

Talab qilib olinguncha depozitlarning jami bank depozit bazasi tarkibidagi ulushi yuqoriligi muddatli va jamg'arma depozitlar ulushlarining kamligi hisobiga to'g'ri keladi. Bu esa bank depozit bazasi tarkibida muddatli va jamg'arma depozitlar yetarli emasligini ifodalaydi.



3-rasm. ATB "Mikrokreditbank" balans ko'rsatkichlari dinamikasi, (mln. so'm)²⁷


²⁶ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan. www.cbu.uz

²⁷ www.Mikrokreditbank.uz ATB "Mikrokreditbank" moliyaviy hisobotlari asosida ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

3-rasm ma'lumotlariga ko'ra, "Mikrokreditbank" ATB balansi 2018–2022-yillar davomida 373 783 mlrd.soʻmdan 1 060 416 mln. soʻmga yoki 283,7 foizga koʻpaygan. Bank balansining oshib borishi mijozlarning depozit hisobvaraqlaridagi mablagʻlar koʻpayishi (yaʼni, 2014-yildagi 373 873 mln.soʻmdan 2022-yilda 1 060 416 mln.soʻmgacha yoki 283,6 foizga oshgan), ichki va tashqi manbalardan qarz mablagʻlarini jalb etish (2018-yildagi 6 932 mln.soʻmdan 2022-yilda 765 094 mln.soʻmgacha yoki 110 barobarga oshgan) va xususiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar(2018-yildagi 166 690 mln.soʻmdan 2022-yildagi 696 121 mln. soʻm-gacha yoki 417,6 foizga oshgan) hisobiga yuz bergan.

Tahlil qilinayotgan davrda ATB "Mikrokreditbank" tomonidan mijozlarga taqdim etilgan kreditlar hajmi 2022-yil yakunida 2 393 587 mln.soʻmni tashkil etgan va 2018-yilga nisbatan 375,6 foizga koʻpaygan. Bankning joriy va uzoq muddatli likvidlik pozitsiyasini taʼminlash uchun zarur naqd aktivlar hajmi 2023-yil 1-yanvar holatiga 282 249 mlrd.soʻmga teng boʻlgan.

ATB "Mikrokreditbank" balansida yuz bergan oʻzgarishlarni aniqlash uchun bir qator nisbiy koʻrsatkichlar hisoblab chiqilgan. Mazkur nisbiy koʻrsatkichlarning birinchi guruhi bevosita resurs bazasidagi oʻzgarishlarni ifodalasa, ikkinchi guruhi ichki va tashqi kredit defolti risklari darajasini aniqlashga xizmat qiladi.




4-rasm. ATB "Mikrokreditbank" balans koʻrsatkichlari dinamikasi, (foizda)²⁸

Birinchi guruh koʻrsatkichlari jumlasiga kiruvchi depozitlarning bank balansidagi salmogʻi koeffitsiyenti tahlil qilingan davrda kamayib borish tendentsiyasini namoyon etgan. Xususan, mazkur koeffitsient 2022-yilda 36,1 foizga teng boʻlib, 2017-yilga nisbatan 17,6 foiz punktga, 2016-yilga nisbatan 33,6 foiz punktga, 2019-yilga nisbatan 26,0 foiz punktga kamaygan. Mazkur davrda ichki va tashqi manbalardan jalb etilgan qarz mablagʻlarining bank balansidagi

²⁸ www.Mikrokreditbank.uz ATB "Mikrokreditbank" moliyaviy hisobotlari asosida ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

salmog‘i 2023-yil 1-yanvar holatiga 25,9 foizni tashkil etib, 2018-yilga nisbatan 25,0 foiz punktga, 2019-yilga nisbatan 23,3 foiz punktga, 2020-yildga nisbatan 23,8 foiz punktga, 2021-yilga nisbatan 18,1 foiz punktga ko‘paygan. Xususiy kapitalning bank balansini shakllantirishdagi salmog‘i 2022-yil yakunida 23,6 foiz bo‘lib, tahlil qilingan davrda ko‘payshish va kamayish tendentsiyasiga ega bo‘lgan.

Ikkinchi guruh ko‘rsatkichlari ATB “Mikrokreditbank” balansida kredit risklari konsentratsiyasi katta ekanligidan dalolat beradi. Xususan, mijozlarga ajratilgan kreditlarning jalb etilgan depozitlar bilan qoplanish darajasi 2022-yil yakunida 44,3 foizga (2021-yilda 81,1 foiz, 2020-yilda 92,6 foiz) kamaygan bo‘lsa, olingan qarz mablag‘lari hisobiga ajratilgan kreditlar salmog‘i 2019-yildagi 1,1 foizdan 2022-yilda 31,9 foizgacha oshib borgan. Olingan qarzlarning bank kapitaliga nisbati 2019-yildagi 4,2 foizdan 2022-yilda 109,9 foizgacha ko‘tarilgan.



5-rasm. ATB “Mikrokreditbank” “Mijozlarning sodiqlik modeli”, foizda²⁹

5-rasm ma‘lumotlariga ko‘ra, 2023-yildan boshlab “mijozlarning sodiqlik modeli”ga asosan qo‘yilgan depozitlar yillar kesimi orqali sodiq mijozlarga imkoniyat taqdim etish maqsadida sodiq mijozlarni aniqlashga e‘tibor qaratilganligini ko‘rish mumkin.

Bank va mijoz o‘rtasidagi o‘zaro kelishuv hamda shartnomalarni bajarish orqali munosabatlar mustahkamlanadi. Muallifning fikricha, “Mijozlarning qoniqishi darajasi ham muhim, chunki qoniqish mijozlarning raqobatchiga o‘tish ehtimolini kamaytiradi.

